


## Toshkent viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2026- yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

1. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi.
2. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
4. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
5. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar.

### 1. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Toshkent viloyatida 2026- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi **6 169,6** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,5** % ga o'sgan.

#### Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, (yanvar-mart, ming so'm)



#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)



## 2. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>6 169,6</b>	<b>113,5</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	8 658,7	125,0
Olmaliq	9 107,8	114,4
Angren	6 032,0	117,4
Bekobod	5 734,4	114,3
Ohangaron	5 785,7	116,1
Chirchiq	5 961,3	116,0
Yangiyo'l	4 596,6	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	3 951,9	113,7
Ohangaron	6 026,7	101,3
Bekobod	3 485,7	113,5
Bo'stonliq	5 506,9	112,4
Bo'ka	3 651,2	114,8
Quy Chirchiq	3 616,4	94,8
Zangiota	5 354,9	117,6
Yuqori Chirchiq	4 878,7	121,4
Qibray	8 482,9	121,7
Parkent	3 853,2	111,8
Piskent	3 614,6	88,9
O'rta Chirchiq	5 320,2	108,6
Chinoz	4 089,7	115,1
Yangiyo'l	5 292,5	108,5
Toshkent	4 862,0	105,6

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori o'sishi Nurafshon shaharda kuzatilib **125,0 %** (*8 658,7 ming so'm*)ni tashkil qildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Qibray tumanida **8 482,9** ming so'm (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,7 %*), Yuqori Chirchiq tumanida **4 878,7** ming so'm (*121,4 %*), Zangiota tumanida **5 354,9** ming so'm (*117,6 %*), Angren shahrida **6 032,0** ming so'm (*117,4 %*) va Ohangaron shahrida **5 785,7** ming so'mni (*116,1 %*) tashkil etdi.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Oqqo'rg'on tumanida tumanida **3 951,9** ming so'm (*113,7 %*), Yangiyo'l shahrida **4 596,6** ming so'mni (*113,5 %*), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

### 3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori 2025- yilning yanvar-mart oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	7 344,2	112,3
Qurilish	6 611,8	82,7
Savdo	5 854,2	118,3
Tashish va saqlash	6 041,0	121,2
Yashash va ovqatlanish	2 916,2	143,0
Axborot va aloqa	12 560,8	147,2
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	13 576,3	114,4
Ta'lim	4 442,2	111,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 936,9	110,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	6 475,5	92,3
<b>O'rtacha</b>	<b>5 967,7</b>	<b>116,9</b>

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari Axborot va aloqa sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **147,2 %** ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa **12 560,8** ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, yashash va ovqatlanish sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori **2 916,2** ming so'mni (*o'sish 43,0 %*), tashish va saqlash – **6 041,0** ming so'mni (*21,2 %*), savdo sohasida – **5 854,2** ming so'mni (*18,3 %*), Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida – **13 576,3** ming so'mni (*14,4 %*) tashkil etdi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi sanoat sohasida – **7 344,2** ming so'mni (*12,3 %*) ta'lim sohasida – **4 442,2** ming so'mni (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7 %*), Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **3 936,9** ming so'mni (*10,0 %*), tashkil etib, o'sish kuzatilgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq bo'ldi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

**4. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026- yilning I choragida axborot va aloqa sohasida ish haqi miqdori **12 560,8** ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8 224,1** ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasi bo'yicha ish haqi miqdori **7 016,2** ming so'mga, savdo sohasida **3 316,4** ming so'mga, tashish va saqlash sohasida **3 217,0** ming so'mga, sanoat sohasida **2 569,7** ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida **1 931,9** ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

**O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm**



**Sanoat sohasida** o'rtacha oylik ish haqi **7 344,2** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida **8 707,5** ming so'm, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida **7 387,5** ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida **6 381,2** ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida **3 769,7** ming so'm ekanligi kuzatildi.


**Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi,**



(ming so'm)


**Savdo sohasida** o'rtacha oylik ish haqi **5 854,2** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida **7 622,7** ming so'mni avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida **6 563,2** ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida **4 232,6** ming so'mni tashkil etgan.

**Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi,**  
(ming so'm)



**Tashish va saqlash** o'rtacha oylik ish haqi **6 041,0** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport sohasida **7 604,4** ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida **6 681,6** ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida **5 570,4** ming so'mni tashkil etgan.


**Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi,**



(ming so'm)


**Axborot va aloqa sohasida** o'rtacha oylik ish haqi **12 560,8** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida **37 200,8** ming so'm, nashriyot faoliyati sohasida **7 585,4** ming so'mni, axborot xizmatlari sohasida **5 869,5** ming so'mni tashkil etgan.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi,**  
(ming so'm)




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** o'rtacha oylik ish haqi **13 576,3** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida **47 292,9** ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida **12 803,4** ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,**  
(ming so'm)



**Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,**  
(ming so'm)

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi **4 442,2** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida **11 515,2** ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida **4 981,6** ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida **4 546,5** ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa **2 431,1** ming so'mni tashkil etgan.



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



## 5. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 7- apreldagi PF-4609-son farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralari yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

$W_n$  – nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025- yil 30- maydagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
V.Xoldarov  
71 202-86-78

**Manzil:**  
Toshkent sh., Mirobod tumani  
Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy

---